



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(2019 yil 1 may holatiga)



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan
tashqari)

Ro'yxatdan o'tgan
24572 ta.

Faoliyat ko'rsatayotgan
23680 ta.

Yangi tashkil etilganlar
2725 ta.

2019 yilning yanvar-aprel oylarida viloyatda 2725 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1434 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2922 taga, faoliyat ko'rsatayotganlarning soni esa, 3100 taga o'sdi.

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019 yil 1 may holatiga)

24572 tani tashkil etdi

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni, birlikda




O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati



2019 yilning 1 may holatiga 24572 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13,5 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 26,2 % savdo, 20,9% sanoat, 7,1 % qurilish, 6,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4,3 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,6 % tashish va saqlash, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,4 % axborot va aloqa hamda 27,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (6443 ta) savdo, (5124 ta) sanoat, (1733 ta) qurilish, (1696 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (1057 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (898 ta) tashish va saqlash, (524 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, (349 ta) axborot va aloqa, hamda (6748 ta) boshqa faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha ulushi, foizda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



● Namangan sh. ● Mingbuloq ● Kosonsoy ● Namangan ● Norin ● Pop ● To'raqo'rg'on
● Uychi ● Uchqo'rg'on ● Chortoq ● Chust ● Yangiqo'rg'on

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning eng ko'pi Namangan shahri (9194 ta) hamda Chust (2018 ta) va Namangan (1692 ta) tumanlariga, eng kam esa, Mingbuloq (997 ta), Norin (1038 ta) va Yangiqo'rg'on (1198 ta) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.


Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 23680 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3100 ta (15,1 %) ga o'sgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, % (dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari)




Savdo




Sanoat




Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi




Qurilish



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish




Axborot va aloqa



Boshqa turlar

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'p Namangan shahri (8708 ta), Chust (1935 ta), Namangan (1658 ta), Uychi (1483 ta), Kosonsoy (1449 ta) va To'raqo'rg'on (1442 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Mingbuloq (996 ta), Norin (1019 ta) hamda Yangiqo'rg'on (1131 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Yangi tashkil etilgan


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019 yil yanvar-aprel oylarida 2725 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018 yilning shu davriga nisbatan 1434 taga ko'pdir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida

soni, birlikda

o'sish surati, %da



Yangi tashkil etilgan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (1127 ta), sanoat (778 ta), qurilish (189 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (157 ta) sohalarida, eng kam esa, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (17 ta), axborot va aloqa (27 ta) hamda tashish va saqlash (83 ta) faoliyat turlarida tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Savdo

1127



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

148



Sanoat

778



Tashish va saqlash

83



Qurilish

189



Axborot va aloqa

27



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

157



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

17


Boshqa turlar



199

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Namangan shahri (774 ta) hamda Chust (235 ta), Pop (227 ta) va Uchqo'rg'on (217 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yangiqo'rg'on (124 ta), Mingbuloq (141 ta) va Chortoq (143 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019 yil 1 may holatiga)


Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonasi va tashkilotlar soni 19463 tani tashkil etdi.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda


Mas'uliyati cheklangan jamiyati




Xususiy korxonasi




Oilaviy korxonasi




Unitar korxonasi




Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



165 ta

O'tgan yilning shu davriga nisbatan 52,8 % o'sgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni.


Asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Turkiya Respublikasi va Qozog'iston Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2019 yil 1 may holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 165 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 57 taga yoki 52,8 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Turkiya Respublikasi va Qozog'iston Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 116 tasi qo'shma, 49 tasi esa, xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda



Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Namangan shahrida 56 ta (jamidagi ulushi 33,9 %), Kosonsoy tumanida 16 ta (9,7 %) va To'raqo'rg'on hamda Uychi tumanida 14 tani (8,5 %) tashkil etgan.

Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Mingbuloq tumanida 2 ta (1,2 %), Uchqo'rg'on tumanida 5 ta (3,0 %), Namangan tumanlarida 6 ta (3,6 %) tashkil etgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa tashish va saqlash, qurilish hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

1


2019 yilning yanvar-aprel oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 31 tani tashkil etgan.

Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 25 taga ko'paygan.



Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 6 ta, Rossiya Federatsiyasi - 5 ta, Koreya Respublikasi - 4 ta, Qozog'iston va Qirg'iziston Respublikasi - 3 tadan, Tojikiston, Hindiston va Chexiya Respublikasi - 2 tadan, Eron, Afg'oniston, Turkiya va Misr davlatlari - 1 tadan korxonalar yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan 13 ta sanoat, 7 ta qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va 3 ta savdo faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019 yil 1 may holatiga)



2019 yil 1 may holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 19351 tani tashkil etdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 18,4 % ga oshgan.

2019 yil yanvar-aprel oylarida 2652 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 1633 taga ko'proqdir.



•Kichik tadbirkorlik subyektlarining eng katta ulushi

•Kichik tadbirkorlik subyektlarining eng kichik ulushi

•Namangan shahri
39,4 %

•Pop tumani
5,1 %

•Chust tumani
8,3 %

•Uchqo'rg'on tumani
5,1 %

•Namangan tumani
7,2 %

•Chortoq tumani
4,9 %

•To'raqo'rg'on tumani
6,0 %

•Yangiqo'rg'on tumani
4,5 %


•Uychi tumani
6,0 %

•Norin tumani
3,9 %

•Kosonsoy tumani
6,0 %

•Mingbuloq tumani
3,6 %

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi foizda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 19351 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 6040 ta (31,2 %) - savdo, 5000 ta (25,8 %) - sanoat, 1617 ta (8,4 %) - qurilish, 1611 ta (8,3 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1006 ta (5,2 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 871 ta (4,5 %) - tashish va saqlash, 416 ta (2,2%) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 315 ta (1,6 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 2475 tasi (12,8 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %da



Savdo

42,5 %



Sanoat

29,3 %




Qurilish

7,1 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

5,6 %



Tashish va saqlash

3,1 %



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

5,9 %



Axborot va aloqa

1,0 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

0,6 %




Boshqa turlar

4,9 %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdo 1127 ta (42,5 %), sanoat 777 ta (29,3 %), qurilish 189 ta (7,1 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 155 ta (5,9 %) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 148 ta (5,6 %) tashkil etilgan. Eng kam sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 17 ta (0,6%), axborot va aloqa 27 ta (1,0 %) hamda tashish va saqlashda 83 ta (3,1 %) tashkil etilgan.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni, birlikda




Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Namangan shahri (753 ta), Chust (229 ta), Pop (221 ta) va Uchqo'rg'on (215 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Yangiqo'rg'on (122 ta), Chortoq (131 ta) va hamda Mingbuloq (136 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda

(1 may holatiga)




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan
● Yangi tashkil etilgan




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan
● Yangi tashkil etilgan

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda

2019 yil 1 may holatiga



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %da



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 49,4 %i yoki 204 tasi sanoat, 16,2 %i yoki 67 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlar, 14,3 %i yoki 59 tasi savdo, 9,2 %i yoki 38 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,2 % yoki 5 tadan axborot va aloqa hamda sog`liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish sohalari, 0,5 %i yoki 2 tasi qurilish, 0,2 %i yoki 1 tasi tashish va saqlash, 7,8 %i yoki 32 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

**Namangan viloyati
statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish
bo'limi.**

Tel.:71-230-84-95(96)